



# IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**№9**



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

**2025**



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

### Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 217 sahifa.*

*E'lon qilishga 2025-yil 1-sentyabrda ruxsat etildi.*

### Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

### Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

### Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor  
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor  
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)  
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)  
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.  
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari  
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i  
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi  
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.  
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)  
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)  
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari  
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi  
Golischeva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Editorial board:

- Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Rae Kwon Chung**, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate  
**Osman Mesten**, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society  
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Sayfullo Normatovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Siddikova Sadokat Gafforovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences  
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Makhmudov Nosir**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Samadov Askarjon Nishonovich**, Candidate of Economic Sciences, Professor  
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Ikrom Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khakimov Nazar Khakimovich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Musayeva Shoira Azimovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor  
**Ali Konak**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)  
**Cham Tat Huei**, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)  
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan  
**Ochilov Farkhod**, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan  
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences  
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor  
**Judi Smetana**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Chrissy Lewis**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Glazova Marina Victorovna**, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Sevil Piriyeva Karaman**, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhmatjon ugli**, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE  
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli**, Senior lecturer at TSUI  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

## Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Aliyev Bekdavlal Aliyevich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Rustamov Ilhomiddin**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, katta o'qituvchi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, mustaqil tadqiqotchi

## Board of Experts:

**Berkinov Bazarbay**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Aliyev Bekdavlal Aliyevich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khalikov Suyun Ravshanovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Rustamov Ilkhomiddin**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Kamilova Iroda Khusniddinovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics  
**Gafurov Doniyor Orifovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, Senior Lecturer  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, Independent Researcher

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

## Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

Postdan xaridgacha: influenser va ilg'or veb-ilova (PWA – progressive web app)ning chakana sotuvga real ta'siri .....	14
<b>Abdulaziz Madjidov</b>	
Ta'lim xizmatlari bozori samaradorligini oshirishda ta'lim klasterlarining roli .....	22
<b>Imamova Nilufar Asamutdinovna</b>	
Korxonalar raqobatbardoshligini oshirishda marketingning tovar strategiyasidan foydalanish holati.....	29
<b>Xidirov Sherzod Olimovich</b>	
O'zbekistonda moliyaviy savodxonlikni institutsionallashtirish: NFIS, Finlit.uz va ta'lim islohotlari .....	34
<b>Irgashev Anvar Farxodovich</b>	
Moslashuvchan menejment tizimlarini yashil iqtisodiyotga integratsiyalash tasnifi .....	39
<b>Umarov Bezzod Batirovich</b>	
Qishloq xo'jaligida innovatsion marketing strategiyasini ishlab chiqish.....	43
<b>Sheraliev Axror Sodiqovich</b>	
O'zbekiston Respublikasida moliyaviy bank xizmatlarini rivojlantirishning tendensiyalari, undan samarali foydalanish imkoniyatlari va konseptual jihatlari .....	48
<b>Roziqov Behzod Bahrom o'g'li</b>	
Metallurgiya korxonalarida raqamli texnologiyalarni joriy etish chet el tajribasi .....	54
<b>Abdullayeva Matluba Nematovna</b>	
Исследование связи между восприятием изменения климата и внедрением устойчивых методов ведения сельского хозяйства в Узбекистане .....	59
<b>Светлана Ражабова, Бахром Миркасимов</b>	
Surxondaryo viloyati qishloq xo'jalik tarmog'ini barqaror rivojlantirishni iqtisodiy-ekologik modellari .....	68
<b>Abdug'aniyev Otobek Allajonovich, Xo'jamqulov Bekzod Turdaliyevich</b>	
Milliy iqtisodiyotda real sektor salmog'i va uning o'zgarish tendensiyalari .....	75
<b>Mambetjanov Qahramon Qurbandurdievich, Isroilova Muhabbat Rustamjon qizi</b>	
Qo'shilgan qiymatni soliqqa tortish uslubiyoti: xususiyatlari, vazifalari va muammolari .....	89
<b>Xaitov Shuxrat Sharipboyevich</b>	
Kognitiv yondashuv asosida tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalari grammatik va diskursiv kompetensiyalarini shakllantirishning nazariy modeli va pedagogik texnologiyasi.....	94
<b>Dadadjanova Feruza Muhammadyusupovna</b>	
Transport tizimining rivojlanishi milliy iqtisodiy o'sishining asosi sifatida .....	98
<b>Narziyev Umidjon Baxrillayevich</b>	
Loyiha risklarini aniqlashda zamonaviy usullar va ularning samaradorligi.....	105
<b>Marufhanov Davron Xasanovich</b>	
Современные методы управления на железнодорожном транспорте в процессе трансформации системы.....	109
<b>Кушакова Мамура Наримановна</b>	
Финансовые механизмы и модели менеджмента в развитии устойчивой экономики транспортных компаний .....	115
<b>Шарапова Гулчебра Рустамовна</b>	
Kasbiy ta'limda o'quvchilarning raqamli kompetensiyasini shakllantirish va baholashning innovatsion yondashuvlari .....	120
<b>Maxkamova Zuhra Tursunpulotovna</b>	
Audit ishi sifati darajasini oshirish yo'nalishlari.....	124
<b>Qushmatov Otaxon Qurbonaliyevich</b>	



Erkin iqtisodiy zonalarda investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning nazariy va amaliy asoslari.....	131
<b>Yuldashev Baxtiyor Gayradjonovich</b>	
Ko'chmas mulk qiymatini baholash va uning ekonometrik tahlili .....	135
<b>Jaloliddinova Mohira Alisher qizi</b>	
Современные тенденции и вызовы бюджетно-макроэкономической политики в Узбекистане .....	142
<b>Хазраткулова Лола Нармуминовна</b>	
Интеллектуал mulkda iqtisodiy mohiyat, mazmun hamda huquqiy jihat uyg'unligi.....	148
<b>N.D.Maxmudova</b>	
Axborot texnologiyalari asosida ta'limda loyiha boshqaruvida sun'iy intellekt va mashinali o'qitish imkoniyatlari .....	152
<b>Xodjiyeva Durdona Abdurasolovna</b>	
Концепция "Зеленого учета" и его значение для экономического развития.....	157
<b>Умарова Зулайхо Турсуновна</b>	
Iqtisodiyotning asosiy tarmoq va sohalariga kiritilgan investitsiyalarning joriy holati tahlili .....	166
<b>Ismailova Kutlibeka Ulug'bek qizi</b>	
O'zbekistonda yoshlar tashkiloti faoliyatini tashkil etishning o'ziga xos jihatlari va rivojlanish bosqichlari .....	172
<b>Usmonov Adxamjon A'zamjonovich</b>	
O'zbekiston Respublikasi maxsus iqtisodiy zonalarini investitsion holatini hududlar kesimida tahlili.....	178
<b>Anvarxonov Abdulatifxon Jamshidxon o'g'li</b>	
Kichik biznes va o'rta biznesni rivojlantirish orqali aholi farovonligini ta'minlash.....	184
<b>Ahmedov Oybek Turgunpulatovich, Nurqulov Nurbek Sirojiddin o'g'li</b>	
Fiskal siyosat instrumentlari orqali yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va legallashtirish metodologiyasi.....	189
<b>Ergasheva Malikaxon Avazxon qizi</b>	
Fond bozorida savdo strategiyasi va uni amalga oshirishga yo'nalishlari.....	192
<b>Soliyev Istam Ixtiyorovich</b>	
Sanoat korxonalarini innovatsion rivojlantirishning asosiy tamoyillari .....	197
<b>Yuldasheva Kamola Miraliyevna</b>	
Iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda davlat boshqaruvi tizimining isloh qilinishi: Tajriba va istiqbollar.....	202
<b>Mashrabaliyev Ibroximbek Mashrabaliyevich</b>	
Iqtisodiyotning real sektorida investitsion loyihalarni moliyalashtirish amaliyoti.....	209
<b>Qosimova Lola Sultanovna</b>	



# IQTISODIYOTNING REAL SEKTORIDA INVESTITSION LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISH AMALIYOTI

Qosimova Lola Sultanovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

E-mail: [l.qosimova@udea.uz](mailto:l.qosimova@udea.uz)

**Annotatsiya:** Mazkur ilmiy maqolada tijorat banklari tomonidan iqtisodiyotning real sektorida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish amaliyoti tahlil qilingan. 2020-2024-yillarda O'zbekistoning yalpi ichki mahsuloti, tijorat banklarining kredit qo'yilmalari va yillik inflyasiya darajasining investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga ta'siri yoritilgan. Tijorat banklari tomonidan milliy valyutada ajratilgan uzoq muddatli kreditlarning muddatlari bo'yicha foiz stavkalari, O'zsanoatqurilishbank va Agrobank aksiyadorlik tijorat banklarining kredit qo'yilmalari hamda banklar tomonidan ajratilgan sindikatli kreditlar hajmi tadqiq qilingan. Tadqiqot natijalari asosida iqtisodiyotning real sektorida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish bo'yicha asosiy xulosalar shakllantirilgan va takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** investitsiya, investitsiya loyihalari, tijorat banklari, real sektor, yalpi ichki mahsulot, kredit qo'yilmalari, inflyasiya darajasi, milliy valyuta, kredit, o'z kapitali, qarz mablag'lari, uzoq muddatli kreditlar, kreditlarning foiz stavkalari, sindikatli kreditlar, loyihaviy moliyalashtirish, infratuzilma, davlat budjeti mablag'lari, iqtisodiy samaradorlik, bank kafolati.

**Abstract:** This scientific article analyzes the practice of financing investment projects in the real sector of the economy by commercial banks. The impact of Uzbekistan's gross domestic product, commercial bank credit investments and the annual inflation rate on the financing of investment projects in 2020-2024 is highlighted. The interest rates on long-term loans issued by commercial banks in national currency, as well as the volumes of credit investments of joint-stock commercial banks Uzpromstroibank and Agrabank and syndicated loans provided by banks were studied. Based on the results of the study, the main conclusions on the financing of investment projects in the real sector of the economy were formulated and proposals for their improvement were developed.

**Key words:** commercial banks, real sector, gross domestic product, credit investments, inflation rate, national currency, credit, equity, borrowed funds, long-term loans, interest rates on loans, syndicated loans, project financing, infrastructure, state budget funds, economic efficiency, bank guarantee.

**Аннотация:** В данной научной статье проанализирована практика финансирования инвестиционных проектов в реальном секторе экономики со стороны коммерческих банков. Освещено влияние валового внутреннего продукта Узбекистана, кредитных вложений коммерческих банков и уровня годовой инфляции на финансирование инвестиционных проектов в 2020-2024 годах. Исследованы процентные ставки по долгосрочным кредитам, выданным коммерческими банками в национальной валюте, а также объемы кредитных вложений акционерных коммерческих банков Узпромстройбанка и Аграбанк и синдицированные кредиты, предоставленные банками. На основе результатов исследования сформулированы основные выводы по финансированию инвестиционных проектов в реальном секторе экономики и разработаны предложения по их совершенствованию.

**Ключевые слова:** коммерческие банки, реальный сектор, валовой внутренний продукт, кредитные вложения, уровень инфляции, национальная валюта, кредит, собственный капитал, заемные средства, долгосрочные кредиты, процентные ставки по кредитам, синдицированные кредиты, проектное финансирование, инфраструктура, средства государственного бюджета, экономическая эффективность, банковская гарантия.

## KIRISH

Jahon miqyosida iqtisodiyotning real sektoridagi investitsion loyihalarni investorlarning o'z mablag'lari, jalb qilingan mablag'lar, qarz yoki kredit mablag'lari, markazlashtirilgan mablag'lar, xususan, budget mablag'lari evaziga moliyalashtirishni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Lekin, real sektordagi investitsiya loyihalarini moliyalashtirish va amalga oshirishda infratuzilma ta'minoti, loyihalarni moliyalashtirishda loyiha tashabbuskorlarining o'z mablag'lari bilan ishtirok etishini ta'minlash, banklarning investitsion kredit qo'yilmalari ulushini oshirish va investitsiyaviy faolligini kuchaytirish, tijorat banklari tomonidan investitsion loyihalarni moliyalashtirish uchun turli investitsiyaviy kredit mahsulotlarini yaratish bilan bog'liq



masalalar hanuzgacha o'zining ijobiy yechimini topmagan. So'nggi yillarda global miqyosda iqtisodiyotning real sektoriga investitsiyalarni jalb qilish, ishlab chiqarish, bozor va ijtimoiy infratuzilmaga investitsiyalar kiritish sekinlashmoqda, "2024-yilda rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish uchun muhim bo'lgan xalqaro loyihaviy moliyalashtirish 26 foizga kamaygan" [1]. Shu jihatdan O'zbekiston iqtisodiyotining real sektorida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish bilan bog'liq muammolarni tadqiq qilish, aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha amaliy tavsiyalarni shakllantirish, real sektordagi investitsion loyihalarni moliyalashtirishni takomillashtirish bo'yicha ilmiy takliflar ishlab chiqishning zarurligi maqola mavzusining dolzarbligini belgilab beradi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodiyotning real sektoriga investitsiyalarni jalb qilishning ilmiy-nazariy asoslari va ushbu sektordagi investitsion loyihalarni moliyalashtirish bilan bog'liq masalalar Henry A.Davis, Erik Canton, Vivek Rao, Jiayin Meng, Zhen Yening ilmiy ishlarida tadqiq qilingan [2].

Yaqin xorijlik olimlardan A.Yu.Kazak, A.V.Tomkovich, Ye.I.Markovskaya, V.I.Xalin, L.I.Yuzvovich, I.V.Feofanov kabilarning ilmiy-tadqiqot ishlarida real sektorga yo'naltirilgan investitsion loyihalarni tashkil etish va moliyalashtirishning nazariyasi, metodologiyasi va amaliyoti tahlil qilingan [3].

Mahalliy iqtisodchi-olimlardan S.G'ulomov, N.Jumayev, A.Vaxabov, T.Malikov, N.Xaydarov, N.Qo'ziyeva, D.G'ozibekovning ilmiy ishlarida investitsiya va investitsiya loyihalarining ilmiy-nazariy asoslari, investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari, lizing munosabatlari nazariyasi va amaliyoti, investitsiyalarni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish kabi masalalar tadqiq qilingan [4].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur ilmiy maqolada iqtisodiyotning real sektordagi investitsiya loyihalarini moliyalashtirishni tadqiq etish maqsadida amaliyotda keng qo'llaniladigan bir necha tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodologik yondashuvlar va uslublar asos bo'lib xizmat qildi:

Tahliliy-sintetik metod. Mavjud iqtisodiy adabiyotlar, xalqaro va milliy tadqiqotlar tahlil qilindi va ular asosida real sektordagi investitsiya loyihalarini moliyalashtirish mexanizmlarining asosiy xususiyatlari va muammolari sintez qilindi. Ilmiy manbalar asosida umumlashmalar chiqarildi.

Iqtisodiy-statistik tahlil. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Milliy statistika qo'mitasi kabi tashkilotlarning ma'lumotlari asosida real sektordagi investitsiya loyig'alarini moliyalashtirishga oid ko'rsatkichlar tahlil qilindi. Diagramma va jadvallar orqali tahlil natijalari ko'rsatildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, texnik-texnologik yangilash, uning raqobatbardoshligini oshirish, eksport salohiyatini yuksaltirish, innovasion va energiyani tejaydigan texnologiyalarga asoslangan yangi ishlab chiqarishlarni tashkil etish, jahon bozorida talab mavjud bo'lgan yangi turdagi tovarlar ishlab chiqarishni o'zlashtirish va shu orqali mamlakatning barqaror rivojlanishini ta'minlashda bank tizimi tomonidan olib borilayotgan investitsion siyosat o'z samarasini bermoqda. Natijada, so'nggi besh yilda bank kredit qo'yilmalari hajmi o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Quyidagi 1-jadval ma'lumotlarini tahlil qilish asosida bir nechta muhim xulosalar chiqarish mumkin:

1-jadval. Yalpi ichki mahsulot, bank kredit qo'yilmalari va inflyasiya darajasi<sup>1</sup>

Ko'rstakichlar	01.01. 2021-y.	01.01. 2022-y.	01.01. 2023-y.	01.01. 2024-y.	01.01. 2025-y.
YalM hajmi (trln. so'm)	668,0	820,5	996,0	1204,5	1454,5
Kreditlar, jami (trln. so'm)	276,97	326,38	390,04	471,40	533,12
Shundan: uzoq muddatli kreditlar (trln. so'm)	248,72	292,98	338,90	410,21	457,08
Uzoq muddatli kreditlarning YAIM hajmidagi salmog'i, %	37,2	35,7	34,0	34,1	31,4
Uzoq muddatli kreditlarning jami kreditlardagi salmog'i, %	89,8	89,8	86,9	87,0	85,7
Inflyasiyaning yillik darajasi, %	13,5	10,0	12,3	8,8	9,8

1 O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi va Markaziy bankning tegishli yillardagi statistik ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.



Mamlakat iqtisodiyotining hajmi va o'sish sur'atlarini ifoda etuvchi asosiy mezon hisoblangan YAIM hajmi 2020-2024-yillar davomida 2,2 baravarga oshib, 1454,5 trln. so'mni tashkil qilgan. Bunday holat mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, iqtisodiy faollikni ta'minlash, aholi real daromadlarining oshishi, iqtisodiy barqarorlik, innovatsiya va investitsiyalarning rivojlanishi nuqtai nazaridan ijobiy holatdir;

2020-2024-yillar mobaynida tijorat banklarining jami kredit qo'yilmalari 1,9 baravarga o'sib, 533,12 trln. so'mga yetgan. Bunday holat banklar tomonidan yuridik va jismoniy shaxslarga berilgan kreditlarning umumiy hajmi ko'payganini anglatadi hamda iqtisodiy faollikning oshib borayotganligini (ishlab chiqarish sub'yektlari faoliyatini kengaytirish uchun kreditdan foydalanmoqda, jismoniy shaxslar iste'mol tovarlari, uy-joy, avtokreditlar orqali mablag' jalb qilmoqda) va bank sektorida likvidlik va ishonch yuqoriligini (banklar yetarli mablag'ga ega va kredit berishga ishonch bilan yondashmoqda, moliyaviy tizimda barqarorlikning mavjudligi, mijozlar tomonidan banklarga boshqariladigan tavakkalchilik bilan kredit olishga tayyorlik borligini ko'rsatadi) ifoda etadi;

2020-2024-yillar davomida tijorat banklari tomonidan berilgan uzoq muddatli kreditlar (1 yildan ortiq muddatga berilgan) hajmi 1,8 baravarga o'sgan va 2020-yildagi 248,72 trln. so'mdan 2024-yilga kelib, 457,08 trln. so'mga yetgan. Bu esa investitsiya, kapital qurilish, asbob-uskuna xarid qilish va strategik loyihalarni kreditlash, intensiv ishlab chiqarishni tashkil etish, texnik va texnologik yangilash, zamonaviy texnologiya asosida raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni tashkil etish bilan bog'liq loyihalarning faol moliyalashtirilayotganligini ko'rsatadi va iqtisodiyotni modernizatsiya qilish nuqtai nazaridan ijobiy belgidir. "Uzoq muddatli kreditlar ko'pincha "kelajakdagi iqtisodiyotga sarmoya" sifatida baholanadi va ularning iqtisodiy o'sishga hissa qo'shish salohiyati yuqori, deb hisoblanadi" [5]. Bir vaqtning o'zida uzoq muddatli kreditlar o'sishi iqtisodiyotdagi investitsiyaviy faollikning ortib borayotganligini, bank sektorida barqarorlik va iqtisodiy o'sishga ishonch borligini ko'rsatadi. Lekin, bu o'sish samarali loyihalarga yo'naltirilgan bo'lmasa, uzoq muddatli moliyaviy xavflar keltirib chiqarishi ham mumkin;

2020-2024-yillar davomida YAIM hajmining o'sish sur'atlari tijorat banklari kredit qo'yilmalarining o'sish sur'atlaridan yuqori bo'lgan. Bunday tendensiya iqtisodiyotda ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va investitsiya faolligi bank kreditlariga kamroq bog'liq holda o'sib borganligini va aksincha, iqtisodiyotda ichki resurslar, xorijiy investitsiyalar yoki budjet mablag'lari hisobiga o'sish yuz berayotganligini ifoda etadi. Shuningdek, jismoniy va yuridik shaxslarning kreditlarga bog'liqlik darajasi pasayib borganligi banklar uchun sog'lom va barqaror muhit yaratadi. Boshqa tomonidan, iqtisodiyotda bank sektori faol ishtirok etmayotganligini hamda muqobil moliyalashtirish bozori (kraudfanding, kraudinverting, kraudlending, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar) rivojlanayotganligini bildiradi;

2020-2024-yillar mobaynida uzoq muddatli kreditlarning YAIM hajmidagi ulushi o'rtacha 34,5 foizni tashkil qilgan va tahlil qilingan davr oralig'ida ushbu ko'rsatkich 5,8 foizli bandga (37,2 foizdan 31,4 foizga qadar) pasaygan. Bunday manzara korxonalarining investitsion loyihalarga kamroq mablag' yo'naltirayotganligini, banklar investitsion kreditlar berishga ehtiyotkorona yondashayotganligini va uzoq muddatli resurslarni (depozit va omonatlar) jalb qilish imkoniyatining cheklanganligini anglatadi. Bu holatni yaxshilash uchun makroiqtisodiy barqarorlik, moliya bozori va kredit infratuzilmasini rivojlantirish muhimdir.

2018-2024-yillar davomida jami kreditlar bo'yicha o'rtacha foiz stavkasi 18,8-24,8 foiz oralig'ida shakllangan. Tahlil qilingan barcha davrda uzoq muddatli kreditlarning foiz stavkasi 21,5 foizdan 24,4 foizgacha (2,9 foizli bandga) ko'tarilgan va o'rtacha 22,4 foizni tashkil qilgan (2-jadval).

2-jadval. 2018–2024–yillarda banklar tomonidan milliy valyutada ajratilgan uzoq muddatli kreditlarning muddatlari bo'yicha foiz stavkalari<sup>2</sup>


Ko'rsatkichlar	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.	2024-y.
Jami kreditlar	21,8	24,8	18,8	20,8	22,3	24,0	23,4
Uzoq muddatli kreditlar	21,5	25,1	19,1	20,5	22,4	24,2	24,4
1 yildan 2 yilgacha	21,6	24,8	19,6	21,4	23,0	24,0	23,5
2 yildan 3 yilgacha	23,2	27,6	20,1	22,7	23,4	25,1	26,5
3 yildan 4 yilgacha	23,3	24,4	19,4	20,8	24,8	25,8	23,8
4 yildan 5 yilgacha	19,0	21,0	19,0	21,5	22,9	27,1	26,6
5 yildan 10 yilgacha	19,7	20,0	18,3	19,0	22,6	24,2	24,4
10 yildan yuqori	18,2	18,5	17,2	17,2	17,8	18,1	19,5

2 O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankning tegishli yillardagi statistik ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.



Tahlil qilingan davr oralig'ida eng yuqori foiz stavkalariga ega bo'lgan segment 4 yildan 5 yilgacha bo'lgan muddatga (19 foizdan 26,6 foizgacha o'sgan yoki 7,6 foizli bandga oshgan) va 5 yildan 10 yilgacha bo'lgan muddatga (19,7 foizdan 24,4 foizgacha o'sgan yoki 4,7 foizli bandga oshgan) berilgan kreditlarda qayd etilgan. Bu holat, birinchi navbatda, ushbu muddatli kreditlarga bo'lgan talabning yuqoriligi bilan izohlanadi.

Agrobank va O'zsanoatqurilishbank aksiyadorlik tijorat banki (ATB)ning moliyaviy ko'rsatkichlari tahlili shuni ko'rsatadiki, 2021-2024-yillar davomida mazkur banklarning kapitali o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bunday holat banklar uchun moliyaviy barqarorlik, biznesni kengaytirish imkoniyati va risklarni kamaytirishini ko'rsatuvchi ijobiy signal hisoblanadi. Kapital o'sishi foyda oshishi, ustav fondiga qo'shimcha investitsiyalar jalb qilinishi, daromadlarni saqlab qolish, regulyator talablarini bajarish va kredit portfelini kengaytirish hisobiga yuz bergan. 2021-2024-yillar mobaynida banklarning aktivlari tegishli 2,7 va 2,5 baravarga oshgan. Banklar aktivlarining o'sishi kredit qo'yilmalarning o'sishi hisobiga yuz bergan. Jumladan, O'zsanoatqurilishbank ATB tomonidan 2021-2024-yillar davomida iqtisodiyotning kreditlarga bo'lgan o'sib borayotgan talabini qondirish maqsadida berilgan kreditlar hajmi 1,5 baravarga o'sib, 65,4 trln. so'mni tashkil qilgan bir sharoitda Agrobank ATBning kredit qo'yilmalari 1,8 martaga o'sib, 59,44 trln. so'mga yetgan (1-rasm). Bunday ijobiy dinamika investorlar tomonidan yangi investitsion loyihalarni moliyalashtirish uchun olinayotgan kreditlarning sezilarli darajada ko'payib borayotganligini va iqtisodiy faollik hamda ishbilarmonlik muhiti yaxshilanayotganligini, shuningdek, banklarning moliyaviy jihatdan barqaror ekanligini ko'rsatadi.



1-rasm. O'zsanoatqurilishbank va Agrobank aksiyadorlik tijorat banklarining kredit qo'yilmalari tahlili<sup>3</sup>

Bugungi kunda tijorat banklari tomonidan ekologik toza va energiya samarador loyihalarni moliyalashtirish, katta hajmdagi loyihalarni bir necha banklar ishtirokida moliyalashtirish amaliyoti, investitsion loyihalar uchun alohida mahsulotlar yaratish, elektron ma'lumotlar bazasi, onlayn kreditlash platformalari rivojlanib bormoqda. Banklar tomonidan moliyalashtirilayotgan investitsiya loyihalari hudud rivojida muhim omil bo'lmoqda.

Tijorat banklari investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda nafaqat moliyaviy resurslarni taqdim etuvchi, balki loyiha samaradorligini baholovchi va uning amalga oshirilishi uchun kafolat beruvchi institutsional ishtirokchi hisoblanadi. Fikrimizcha, banklar loyiha tahlilida raqamli texnologiyalardan keng foydalanishi, qarz oluvchilar loyihalarni tayyorlashda professional biznes-rejalarga asoslanishi, davlat-bank hamkorligidagi subsidiya va kafolat dasturlari kengaytirilishi hamda xalqaro amaliyotda investitsion loyihalarni moliyalashtirishda samarali qo'llanilayotgan sindikatlangan kreditlash (ingl. syndicated loan) amaliyotini kuchaytirishi zarur.


"Jahon amaliyotida yirik loyihalar asosan sindikatli kreditlar hisobiga moliyalashtiriladi. Bir qarz oluvchining kreditga bo'lgan ehtiyoji bank uchun belgilangan limitlardan oshib ketishi mumkin. Bunday holatlarda bir necha banklar o'z mablag'larini qo'shib (sindikat hosil qilib) mijozlarga sindikatli kreditlar berishadi. Bu kreditni boshqa kreditlardan ajratib turuvchi jihati ham bunda bir nechta kredit beruvchi bo'ladi va shunga muvofiq kredit riski hamda summasi ham bir nechta ishtirokchi banklarga bo'linib ketadi" [6]. Ushbu kredit turining asosiy xususiyati shundaki, moliyalashtirishda bir nechta kreditor ishtirok etadi va shu orqali yirik sarmoya talab qiluvchi investitsion loyihalar moliyaviy ta'minlanadi va qayd etish joizki, hech qaysi bank yolg'iz o'zi yirik hajmdagi summada va riskda moliyalashtirishni istamaydi. Sindikatli kredit – katta loyihalarni moliyalashtirish

3 "O'zsanoatqurilishbank" ATB Moliyaviy ko'rsatkichlar | Agrobank ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tahlil qilingan



uchun samarali, xavfsiz va strategik yechimdir. U kredit oluvchiga katta mablag'ni yagona kelishuv orqali olish, banklarga esa xavfni taqsimlash va foyda olish imkonini beradi.

Ammo, quyidagi raqamlar tahlili O'zbekistonda moliyalashtirishning ushbu shakli rivojlanmaganligi ko'rsatadi. Jumladan, 2020-2024-yillar davomida tijorat banklari tomonidan berilgan sindikatli kreditlar 1,24 baravarga oshib, 4785 mlrd. so'mni tashkil qilgan. Tahlil qilingan davr oralig'ida ushbu kreditlarning banklarning uzoq muddatli kreditlardagi salmog'i bor-yo'g'i o'rtacha 1,4 foizni tashkil qilib, pasayish tendensiyasi kuzatilgan (2-rasm).



2-rasm. Banklar tomonidan ajratilgan sindikatli kreditlar hajmi (mlrd. so'mda)<sup>4</sup>

Bunday holat investitsion loyihalarni moliyalashtirish masalasida moliyaviy bozor va bank tizimida muayyan cheklovlar va muammolar mavjudligini anglatadi. Sindikatli kreditlashning rivojlanishi uchun banklar o'rtasidagi hamkorlik, katta miqdordagi moliyaviy resurslar va ishonch muhim. Sindikatli kredit, odatda, katta kapital talab qiluvchi loyihalar uchun amalga oshiriladi. Agar mamlakatda katta infratuzilma, sanoat yoki eksport loyihalari kam bo'lsa, bu kredit turiga ehtiyoj kamayadi. Bu moliyalashtirish shaklining huquqiy asoslari ham mukammal bo'lishi zarur. Sindikatli kreditlar ko'pincha xalqaro banklar va investitsiya institutlari ishtirokida amalga oshiriladi. Agar mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligi yaxshi bo'lmasa xorijiy investorlar uchun xatarli deb baholanadi va sindikatli kreditlashtirish rivojlanmaydi. Ushbu kreditlashtirish turida tashkiliy xarajatlar yuqori bo'lishi mumkin (masalan, agent bankka to'lovlar). Barcha ishtirokchi banklar shartlarga rozi bo'lishi kerak – bu ba'zan muzokaralarni uzoqlashtiradi. Qat'iy nazorat va hisobot talab etiladi. Bu holat moliya sektori va iqtisodiyotning rivojlanish darajasini oshirish zarurligini, xususan, huquqiy baza va xalqaro hamkorlikni kuchaytirishni, infratuzilma loyihalarining amalga oshirilishi lozimligini ko'rsatadi.

Infratuzilma investitsion loyihalarning samarali amalga oshirilishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Infratuzilma – bu iqtisodiyotning barcha sohalari faoliyati uchun asosiy bazaviy sharoitlarni yaratib beruvchi tizimdir. Shuning uchun investitsiya loyihalarining samaradorligi, jozibadorligi va barqarorligi infratuzilmaning sifati va mavjudligiga bevosita bog'liq. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti "iqtisodiyot barqaror o'sgani sari yangi infratuzilmaga talab ortib boraverishini" [7] alohida ta'kidladi. Ekspertlar fikriga ko'ra, "2030-yilgacha dunyoda yangi infratuzilma uchun 15 trillion dollar investitsiya talab qilinadi" [8].

Yaxshi infratuzilma loyihaning xavf darajasini kamaytiradi, bu esa banklar va investorlar uchun uni moliyalashtirishni jozibador qiladi. Mukammal logistika va kommunikatsiya tizimi mahsulotni bozorga tez yetkazishga yordam beradi. Bu mahsulot tannarxini kamaytiradi va raqobatbardoshlikni oshiradi. Loyiha qurilishi, materiallar tashilishi, xodimlarni jalb qilish jarayonlari infratuzilma yaxshi bo'lganda ancha tezlashadi. Bu esa loyihaning amalga oshirish muddatini qisqartiradi, xarajatlarni kamaytiradi. Infratuzilma nafaqat moddiy, balki institutsional darajada ham bo'lishi kerak – ya'ni, moliyaviy xizmatlar, huquqiy kafolatlar, lisenziyalash tizimi. Bu omillar xorijiy va mahalliy investorlar ishonchini oshiradi. Infratuzilma mavjud bo'lgan hududlarda investitsiya loyihalari ko'proq amalga oshiriladi. Bu esa hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni kamaytirishga yordam beradi.

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankning tegishli yillardagi statistik ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan



Investitsiya loyihalarini amalga oshirishda infratuzilma xarajatlarini davlat budjeti hisobidan qoplash amaliyoti dunyoda keng tarqalgan. Bu usul, ayniqsa, katta iqtisodiy yoki strategik ahamiyatga ega loyihalar uchun qo'llaniladi. Masalan, Xitoyda davlat infratuzilmaviy ob'ektlar: temir yo'llar, yo'llar, portlar, elektr stansiyalari qurilishiga katta sarmoya kiritadi. Sanoat zonalar, erkin iqtisodiy zonalar va texnologik klasterlar qurilishida barcha infratuzilma davlat tomonidan ta'minlanadi. Bundan maqsad xorijiy va mahalliy investorlar uchun qulay muhit yaratish hamda eksport va ishlab chiqarish salohiyatini oshirishdir.

Singapur hukumati katta strategik loyihalarga xizmat qiluvchi infratuzilmani o'z zimmasiga oladi – portlar, aeroportlar, raqamli infratuzilma. Masalan, “Jurong Island” – neft-gaz klasterining infratuzilmasi to'liq davlat mablag'lari hisobidan qurilgan. Bundan maqsad investorlarni jalb qilish va mamlakatning logistika xab sifatidagi rolini mustahkamlashdan iborat.

Janubiy Koreya davlat budjeti mablag'lari evaziga industrial parklar, texnoparklar, transport tarmoqlarini bunyod etib, xususiy sektorni shunga jalb etadi. Masalan, “Changvon sanoat shahri” loyihasida infratuzilmaning asosiy qismi davlat mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan. Bundan ko'zlangan maqsad esa xususiy investitsiyalarni tezroq jalb etish va sanoat rivojini tezlashtirishdir.

Turkiyada davlat yirik investitsiya loyihalariga xizmat qiluvchi infratuzilmani o'z zimmasiga oladi. “Organized Industrial Zones” – davlat tomonidan infratuzilma quriladi, tadbirkor faqat ishlab chiqarishga investitsiya qiladi. Asosiy maqsad ish o'rinlari yaratish, mahalliy va xorijiy investitsiyalarni rag'batlantirishdir.

Qozog'istonda “Nurli Jol”, “Nur Otan” va “Jang'irush” dasturlari orqali davlat infratuzilmani ta'minlaydi. Industrial zonalarda kommunikatsiyalar, yo'llar, elektr va suv ta'minoti davlat mablag'lari hisobiga quriladi. Bu esa xususiy sektor uchun qulay sharoit yaratadi va mintaqalar rivojini ta'minlaydi.

Iqtisodchi-olimlardan U.Rostou ishlab chiqarish infratuzilmasiga “muayyan iqtisodiy muhit doirasida iqtisodiy o'sish sur'atlarini jadallashtiruvchi negiz, asos” [9] sifatida qaragan. U.Lyuis, R.Nurkse, P.Rozenshteyn-Rodan “o'sishning yuqori sur'atlari faqat ijtimoiy qo'shimcha xarajatlarni avanslagan sharoitdagina o'ringa ega bo'lishini asoslab berganlar” [10]. Bunda aynan umummilliy ehtiyojlarni qondiruvchi, kapital va xususiy tadbirkorlikning samarali amal qilishini ta'minlovchi sohalarida ishlab chiqarish infratuzilmasining tashkil etilishi va rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni ko'zda tutiladi.

O'zbekistonda so'nggi yillarda industrial zonalar, erkin iqtisodiy zonalar uchun infratuzilma davlat tomonidan qurilmoqda. Masalan, “Navoiy” va “Angren” erkin iqtisodiy zonalarida infratuzilma xarajatlari davlat budjeti va xalqaro moliyaviy institutlar hisobidan qoplangan. Natijada, erkin iqtisodiy zonalarda 4000 dan ziyod investitsiya loyihalari amalga oshirildi, ushbu hududlardagi infratuzilma ob'ektlarining 90 foizigacha qismi davlat budjet mablag'lari hisobidan amalga oshirilgan. Biroq, viloyatlardagi tuman va shaharlarda iqtisodiy o'sishga turtki beruvchi drayver loyihalarni amalga oshirishda infratuzilma ta'minoti bilan bog'liq muammolar hanzugacha o'z ijobiy yechimini topmagan. Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti ekspertlari infratuzilma tarmoqlariga kiritilgan investitsiyalarning iqtisodiy taraqqiyotga ta'sirini baholash natijalariga ko'ra, “infratuzilmaning barcha tarmoqlariga kiritilgan investitsiyalar iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, elektr energiyasi va suv ta'minoti tarmoqlariga kiritiladigan investitsiyalarning ta'siri (elastiklik koeffitsiyenti) boshqa infratuzilma tarmoqlaridagiga nisbatan pastroq, ya'ni ushbu sohalariga yo'naltirilgan investitsiyalarning 1 foizga oshishi yalpi hududiy mahsulotning 0,16 foiz o'sishiga olib keladi” [11]. Fikrimizcha, bunday xulosa elektr energiyasi va suv ta'minoti tarmoqlariga kiritilgan investitsiyalar nisbatan uzoqroq muddat mobaynida iqtisodiy foyda keltirishi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, ushbu tarmoqlar boshqa sohalarining rivojlanishi uchun asos ekanligini yoddan chiqarmaslik lozim. Ularni rivojlantirmasdan turib, iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga investitsiya kiritish kutilgan natijani berishi amrimaholdir.

Qarz oluvchi tomonidan loyihaga o'z mablag'lari yo'naltirilishi quyidagi maqsadlarga xizmat qiladi: qarz oluvchi loyihaga shaxsiy yoki korporativ mablag'larini sarflagan holda, loyihani samarali boshqarishga va to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirishga qiziqishi ortadi, bu esa moliyaviy intizomlikni oshiradi; loyihaga moliyaviy ishtirok orqali qarz oluvchi va kreditor o'rtasida risklar proporsional taqsimlanadi; moliya-kredit muassasalari, xususan tijorat banklari qarz oluvchining loyiha umumiy qiymatida o'z mablag'lari bilan ishtirok etishi kredit qaytarilishini ta'minlovchi muhim omil sifatida baholaydilar; qarz oluvchining investitsiyasi loyihaning puxta rejalashtirilgani va amalga oshirilishiga ishonch uyg'otadi va bu loyihaning sifatini kafolatlaydi. Aksariyat moliya muassasalari investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda qarz oluvchining kamida 20-30 foiz hajmida o'z mablag'i bilan ishtirok etishini talab qiladi. “Investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda tashabbuskorning yoki qarz oluvchining o'z ulushi, hissasi, qoida tariqasida, loyiha umumiy qiymatining 30 foizidan kam bo'lmasligi kerak” [16]. “Rivojlangan mamlakatlar, jumladan, Germaniya, Fransiya, Italiya, Buyuk Britaniya, AQSH kabi davlatda tijorat banklari, investitsiya fondlari va lizing kompaniyalari investorlarga qarz berishda kamida 20-30 foiz o'z kapitali bilan ishtirok etishini talab qiladi. Xususiy-davlat sheriklik loyihalarida ham ana shunday talablar bor” [13]. Fikrimizcha, buning asosiy sabablaridan biri kredit riskini pasaytirishdir. Chunki qarz oluvchi loyihani moliyalashtirishda o'z mablag'lari bilan ishtirok etsa, u loyihani muvaffaqiyatli yakunlash uchun ko'proq



mas'uliyatni his qiladi. Qarz ulushi qanchalik yuqori bo'lsa, kredit to'lovlari shuncha ko'payadi, natijada loyiha umumiy qiymati ortishi mumkin. Shu sababli, muvozanatni saqlash muhimdir.

Qarz oluvchi o'z mablag'lari bilan turlicha shakllarda ishtirok etishi mumkin: naqd mablag'lar orqali investitsiya; asosiy vositalar ko'rinishida (bino, uskuna va h.k.); mavjud infratuzilmadan foydalanish imkoniyatini yaratish; tadbirkorlik tajribasi va boshqaruv salohiyatini qo'shish va shu kabilar. Masalan, umumiy qiymati 10 milliard so'm bo'lgan sanoat loyihasi uchun bank qarz berishga tayyor, ammo qarz oluvchi kamida 3 milliard so'mni o'z mablag'lari hisobiga qoplashi kerak. Bu holatda bank loyihaning juda jiddiy va mas'uliyatli ishlab chiqilganiga ishonch hosil qiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

2020-2024-yillar davomida uzoq muddatli kreditlarning jami kreditlardagi salmog'i 2020-yilda 89,8 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yil oxiriga kelib, ushbu ko'rsatkich 85,7 foizga teng bo'lgan va tahlil qilingan davr oralig'ida 4,1 foizli bandga pasaygan. Shunday bo'lsa-da, bank kredit qo'yilmalari tarkibida uzoq muddatli kreditlarning ulushi (o'rtacha 87,8%) sezilarli darajada yuqoridir. Shuni alohida qayd etish zarurki, uzoq muddatli kreditlar tarkibida 5 yil va undan yuqori bo'lgan kreditlarda sezilarli siljish kuzatilmoqda. Agar "2018 yilda 5-10 yil va 10 yildan yuqori muddatli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi 18 foiz atrofida bo'lgan bo'lsa, 2025 yil iyun holatiga kelib, bu ko'rsatkich 21 foizga yetgan. Bunday holat iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi, investitsiyaviy faollikni aks ettiruvchi ijobiy belgi bo'lib, inflyasiya, foiz stavkalari va valyuta kurslari bo'yicha barqaror iqtisodiy muhitdan darak beradi. Biroq, nazoratsiz o'sish yoki kredit sifati past bo'lsa, u holda bank tizimi va iqtisodiyot uchun rivojlanish emas, balki xatar manbai bo'lishi mumkin. "Rivojlangan iqtisodiyotlarda muddati 5 yildan uzoq bo'lgan kreditlarning jami portfeldagi o'rtacha ulushi 30 foizni tashkil qilsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda mazkur ko'rsatkich 18 foizga to'g'ri keladi. O'rta muddatli (2 va 5 yil o'rtasida) kreditlarning ulushi rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda mos ravishda 28 va 32 foizni tashkil qiladi.

Inflyasiyaning yillik darajasi 2021-yil 1-yanvar holatiga 13,5 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilning 1-yanvar holatiga 3,7 foizli bandga pasayib, 9,8 foizga teng bo'lgan. Bu, albatta ijobiy holatdir. Chunki, yillik inflyasiyaning o'sib borishi, birinchidan, tijorat banklarining kreditlardan olinadigan foizli daromadlarning real qiymatini pasayishiga olib keladi, ikkinchidan, milliy valyutaning qadrsizlanish sur'ati yuqori darajada bo'lsa banklar tomonidan investitsiya loyihalarini moliyalashtirish maqsadida berilgan kreditlarni qaytarishda muammolar yuzaga kelishi mumkin, uchinchidan, bank foiz stavkalarining ham ko'tarilishiga sababchi bo'ladi.

Investorlar ko'pincha infratuzilmani qurish emas, balki o'z ishlab chiqarish faoliyatiga e'tibor qaratmoqchi bo'ladi. Agar davlat infratuzilmani ta'minlasa investitsiya oqimi ortadi, loyiha amalga oshirish muddati qisqaradi, investorning xarajatlari kamayadi hamda davlat va xususiy sektor hamkorligi mustahkamlanadi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, iqtisodiyotning real sektorida investitsiyaviy drayver loyihalarni amalga oshirishda ularni zarur infratuzilma (muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari, aloqa, yo'l-transport infratuzilmalari va drayver loyihalar bilan bog'liq boshqa obyektlar) bilan ta'minlash xarajatlarini budget mablag'lari hisobidan moliyalashtirish maqsadga muvofiqdir. Natijada, hududlarning zaxira va imkoniyatlarini hisobga olgan holda, ma'lum iqtisodiy o'sishni, o'zgarishni yoki harakatlantiruvchi omilni yuzaga keltiradigan sanoat, xizmatlar ko'rsatish sohalari va qishloq xo'jaligining rivojlanishiga turtki beradigan loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatlari kengaytiriladi.

Investitsiya loyihasini amalga oshirishda moliyalashtirish manbalarining to'g'ri tanlanishi va shakllantirilishi juda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, loyihani tashqi qarzar yoki kreditlar orqali moliyalashtirishda qarz oluvchining (loyihani amalga oshiruvchi jismoniy yoki yuridik shaxsning) o'z mablag'lari bilan ishtirok etishi muhim shartlardan biri hisoblanadi. Bu nafaqat moliya muassasalari uchun xavfsizlik kafolati, balki loyihaning iqtisodiy samaradorligi va barqarorligi uchun ham muhim omildir.

Investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda ularning iqtisodiy samaradorligi, qo'shimcha qiymat va yangi ish o'rinlari yaratish imkoniyatlariga alohida e'tibor bergan holda loyiha tashabbuskorlarining loyiha umumiy qiymatida kamida 30 foiz o'z mablag'lari bilan ishtirok etishini ta'minlashga erishish maqsadga muvofiqdir. Natijada, investitsion loyihalarni moliyalashtirishda loyiha tashabbuskorlarining moliyaviy mas'uliyati oshadi, bankning investorlarga bo'lgan ishonchi ortadi va bank uchun qo'shimcha moliyalashtirish manbai yuzaga keladi hamda investitsiya loyihalarining iqtisodiy-ijtimoiy samaradorligi ta'minlanib, loyiha risklarini samarali boshqarish imkoni yaratiladi. Bir vaqtning o'zida, qarz oluvchining loyiha moliyalashtirilishida o'z mablag'lari bilan ishtirok etishi loyihaning iqtisodiy asoslanganligini tasdiqlaydi, moliya tashkilotlari va investorlar uchun ishonchlilikni oshiradi, loyihaning muvaffaqiyatli yakunlanish imkoniyatini beradi. Biroq, qarz oluvchilar loyiha rejasini tuzishda o'z mablag'lari ulushini aniq belgilab olishlari kerak. Moliya muassasalari tomonidan ushbu ulushni baholashda aniq mezonlar ishlab chiqishlari zarur

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Doklad OON za 2025 god preduprejdayet: globalnyye investisii ne sootvetstvuyut syelyam ustoychivogo razvitiya - Sigma Earth
2. Henry A.Davis. Project Finance: Practical Case Studies Second Edition VOLUME II Resources and Infrastructure. London. United Kingdom. 2003 Euromoney Institutional Investor PLC. Printed in England by The Cromwell Press, Trowbridge. – 46 p. PROJECT-FINANCE-PRACTICAL-CASE-STUDIES-VOLUME-II-RESOURCES-AND-INFRASTRUCTURE.pdf; Erik Canton. Financing the real economy. ECFIN economic briefs are occasional working papers by the European Commission's Directorate-General for Economic and Financial Affairs which provide background to policy discussions. Issue 30 | February 2014. ISSN: 1831-4473 (eb30\_en.pdf); Vivek Rao. An empirical analysis of the factors that influence infrastructure project financing by banks in select asian economies. Asian development bank. August 2018 (An Empirical Analysis of Factors Influencing Project Financing by Banks of Infrastructure Public-Private Partnership Projects in Select Asian Economies).
3. Казак А.Ю. Финансирование реальных инвестиционных проектов. Монография. – Екатеринбург: АМБ, 2003. – 177 с.; Томкович А.В. Финансирование инвестиционных проектов. Уч. пос. – Калининград: ФГБОУ ВО «КГТУ», 2023. – 82 с.; Марковская Е.И. Организация финансирования инвестиционных проектов: теория и практика. Монография. – СПб.: Санкт-Петербургский государственный политехнический университет, 2013. – 183 с.; Халин В.И. Финансирование инвестиционных проектов на основе концессионного механизма. Автореф. дисс. на соиск. уч. ст. к.э.н. – Екатеринбург: Уральский государственный экономический университет, 2024. – 30 с.; Юзвович Л.И. Финансирование реальных инвестиций: теория, методология, и практика. Автореф. дисс. на соиск. уч. ст. д.э.н. – Екатеринбург: Уральский государственный экономический университет, 2012. – 39 с.; Феофанов И.В. Финансирование инвестиционных проектов в реальном секторе экономики. Автореф. дисс. на соиск. уч. ст. к.э.н. – Екатеринбург: Уральский государственный экономический университет, 2007. – 23 с.
4. Gulyamov S.S., Jumayev N.X., Raxmanov D.A., Toshxodjayev M.M. Ijtimoiy sohada investitsiyalar samaradorligi. – T.: Iqtisodiyot, 2019.; Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya. Darslik. – T.: Noshir, 2012. – 712 b.; Xaydarov N.X. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida korxonalar investitsion faoliyatidagi moliya-soliq munosabatlarini takomillashtirish masalalari. I.f.d. diss. avtoref. – T.: 2003. – 29 b.; Qo'ziyeva N.R. Xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar faoliyatini rag'batlantirishning moliya-kredit mexanizmini takomillashtirish yo'nalishlari. I.f.d. diss. avtoref. – T.: BMA, 2008. – 46 b.; G'ozibekov D.G'. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. Monografiya. – T.: Moliya, 2003. – 332 b.
5. Nikola Tasic & Neven Valev, 2008. "The Maturity Structure of Bank Credit: Determinants and Effects on Economic Growth," Working papers 13, National Bank of Serbia.
6. Karimov N.G'., Razzoqov J.X. Investitsion loyihalarni sindisiyalashtirilgan kreditlar hisobiga moliyalashtirishning tashkiliy va huquqiy asoslarini takomillashtirish // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" Ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2020-yil. .
7. Tadbirkorlarning tashqi infratuzilmaga xarajati foyda solig'i bazasidan chegirib tashlanadi – O'zbekiston yangiliklari – Gazeta.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki Boshqaruvchilari kengashining to'qqizinchi yillik yig'ilishidagi nutqi.
9. Глушич Н.Г. Производственная инфраструктура и перспективы её развития в России. Специальность: 08.00.01 – экономическая теория. Автореф. дисс. на соиск. уч. ст. к.э.н. – Нижний Новгород, 2009. – С. 3.
10. 72.doc. Теории развития. Модели становления рыночной экономики: кейнсианские, неоклассические, институциональные.
11. Infratuzilma tarmoqlariga investitsiya kiritishning iqtisodiy o'sishga ta'siri qanday?
12. Марковская Е.И. Организация финансирования инвестиционных проектов: теория и практика. – СПб.: Издательство Политехнического Университета, 2013. – С. 25.; Критерии выбора форм финансирования инновационных проектов и минимизация их рисков.
13. William B.Brueggeman, Jeffrey D.Fisher. Real Estate Finance and Investments. Seventeenth Edition. Published by McGraw Hill LLC, 1325 Avenue of the Americas, New York, NY 10121. Copyright ©2022 by McGraw Hill LLC. All rights reserved. Printed in the United States of America. – 833 p. (9781260734300.pdf).



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

**2025. № 9**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

---